

**“SINF DAN TASHQARI ISHLARDA BERUNIY HAQIDAGI RIVOYATNI
O'QUVCHILARGA O'RGATISHDA TARIXIY MA'LUMOTLARDAN
FOYDALANISH HAMDA BOG'LANISHLI NUTQINI O'STIRISH ORQALI BILIM,
MALAKA VA KO'NIKMA HOSIL QILISH”**

Ozoda Pirmetova Sapparboyevna

Boshlang'ich ta'lim metodikasi

kafedrası katta o'qituvchisi

Matyakubova Nuriya Azimboyevna

UrDU magistratura bo'limi ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi (Boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Otanazarova Mohira Hamidbekovna

UrDU magistratura bo'limi ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi (Boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Rezyume

Maqolada 4-sinf “O'qish kitobi”da berilgan “Sulton Mahmud va Beruniy” rivoyatini o'rganish jarayonida tarixiy ma'lumotlardan foydalanish usullari yoritiladi. Shuningdek, rivoyat matnidagi obrazli ifodalarni va qiyin so'zlarni tahlil qilish masalalariga ham e'tibor jalb etiladi.

Kalit so'zlar: Beruniy, Sulton Mahmud, rivoyat, obrazli ifodalar, metodika, 4- sinf, “O'qish kitobi”.

Резюме

В статье идёт речь о методах изучения предание «Султан Махмуд и Бируний», в книге для чтения в IV классе, на основе сопоставления с историческими сведениями. На этом процессе обращаются внимания на изучения образных выражений и трудных слов встречающегося в структуре данного предание.

Ключевые слова: Бируний, Султан Махмуд, предание, образные выражения, методика, IV класс, книга для чтения.

Resume

The given article is devoted to lightening up the methods of using the historical facts in the process of studying the folktale from the textbook of reading of the fourth form “Sutan Makhud

and Beruniy". In this process the attention is paid to analyzing the graphic phrases and the glossary of difficult words of the folktale.

Keywords: Beruniy, Sultan Makhmud, folktale, graphic phrases, methodics, 4th form, text book of reading.

4-sinf "O'qish kitobi" da tariximizda yorqin iz qoldirgan buyuk ajdodlarimiz haqida yaratilgan qator rivoyatlardan namunalar berilgan. Shulardan bittasi "Sulton Mahmud va Beruniy" rivoyatidir.

O'qituvchi dastlab ushbu rivoyatni o'zi o'qib berishi va bir necha o'quvchilarga bo'lib berib o'qitishi zarur. Savol-javoblardan keyin matn tahliliga kirishish lozim. Dastlab tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar lug'ati tug'iladi:

Qasr-saroy; boloxona-yuqorida, balandda joylashgan xona; Munajjim-yulduzlar ilmi bilan shug'ullanuvchi shaxs; Xunibiyron-qon yig'lamoq; g'ulom-qul, xizmatkor; Sukut-jimlik.

Matn tarkibida nazari tushmoq (qarab boqmoq); Lat emoq (jarohatlanmoq); mug'ombirona boqmoq (ayyorlik, shum kayfiyatda ko'z tashlamoq) kabi frazeologik iboralar ma'nosini ham bolalarga tushuntirib o'tish kerak bo'ladi.

Matn tahlili jarayonida darslikda berilgan savollardan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Darslikda biz rivoyat deb nomlayotgan bu asar hikoyat nomi ostida berilgan. O'quvchilarda anglashilmovchilik bo'lmasligi uchun bu masalaga ham to'xtalib o'tish kerak. Xalq ijodiyotida bu toifa asarlar ba'zan hikoyat tarzida ham nomlanadi.

Beruniy haqida mazkur rivoyat juda keng yoyilgan bo'lib, unda buyuk mutafakkirning ilmga tayangan holda bashorat qila bilish qobiliyatiga ega ekanligiga urg'u beriladi.

U biror narsa haqida bashorat qilish uchun asosan mantiqqa tayanadi. Shu sababdan ham olim: "Bilimsiz kishilarning ko'ngli xurofotga moyil bo'ladi", deya ta'kidlaydi. Rivoyatda asosan ikki obraz bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi. Bularning birinchisi Beruniy bo'lib, u dono inson, buyuk bashoratchi, yuksak ilm sohibi sifatida gavdalanadi. Shu sababli darslikda ham "Bilimlilar ming yashar" maqolining hikoyatga qanday aloqasi bor ekanligi so'ralgan. Bunga Beruniy taqdiri to'la javob bera oladi. Chunki, Sulton Mahmudning tazyiqidan Beruniyni faqat yuksak ilm egasi bo'lganligi, aqli, idrokigina qutqarib qoladi.

Rivoyatdagi Sulton Mahmud obrazi esa buyuk allomaga nisbatan butunlay qarama-qarshi. U katta hukmdor, mustabid shoh, ayni paytda johillikka daxldor shaxs. Uning uchun Beruniydek dono bir olimning hayoti sariq chaqaga arzimaydi. Shu sababdan ham Beruniyni mazax qilish uchun turli usullarni o'ylab topadi. Ammo baribir ilm-fanning qudratiga suyangan buyuk alloma oldida hamisha ojiz qoladi. Bu esa uni yanada g'azabini keltiradi.

O'quvchilarga bu ikki obrazni qiyosiy tahlil qilish jarayonida har tomonlama puxta tushuntirish lozimki, ularda buyuk olimga nisbatan mehr-muhabbat, Sulton Mahmudga nisbatan g'azab-nafrat uyg'onsin.

Beruniy obrazini, uning fanimiz tarixida tutgan o'rnini belgilash uchun quyidagi buyuk shaxslarning fikrlari keltiriladi.

Akademik Ibrohim Mo'minov:

“Abu Rayhon Beruniy-o'zining ilmiy qiziqish doirasi, fandagi dadil fikrlari bilan insonni hayratga soladigan ajoyib olim; teran faylasuf, tabiatshunoslik, falsafa, tarix va filologiya sohalarida 150 dan oshiq asar yozgan qomusiy mutafakkirdir”.

(Beruniy i gumanitarnye nauki. –T.: «Fan», 1972. –S.3.)

(Qayumov A. Beruniy va adabiyot. –T.: “Adabiyot va sanʼat”, 1974. –B.3)

Akademik Aziz Qayumov: “Abu Rayhon Beruniy-fanning taraqqiyotiga g'oyat ulkan hissa qo'shgan, zo'r iste'dod egasi va zahmatkash tadqiqotchi edi. Uning o'lmas ilmiy asarlari jahon fani taraqqiyotida benihoyat yuksak ahamiyatga ega”.

“Beruniy 150 dan oshiq asar yaratdi. Ularning 70 tasi astronomiya, 20 tasi matematika, 12 tasi geografiya va geodeziya, 4 tasi kartografiya, 3 tasi ob-havoni bilish masalalari, 3 tasi mineralogiya, 1 tasi fizika, 1 tasi dorishunoslik, 15 tasi tarix va etnografiya, 4 tasi falsafa va 18 tasi adabiyotga oid. Ammo ularning 30 tasigina bizgacha etib kelgan”.

Bundan ko'rinib turibdiki, buyuk ajdodimiz Beruniy bobomiz o'z davrining faol tadqiqotchi va kuzatuvchi olimi bo'lgan.

Jahon ilm-fani rivojiga salmoqli hissa qo'shgan bobomiz Abu Rayhon Beruniy haqida aytilgan ushbu fikrlar yoshlarda faxr-iftixor tuyg'usini uyg'otishiga erishish har bir muallim uchun farzdir.

Rivoyatning tahlili jarayonida uni tarixiy haqiqat bilan uzviy bog'lagan holda ish olib borish lozim.

Eng avvalo Beruniy taxallusining ma'nosini ochib berish va olim hayotining ayrim qirralarini qisqacha aytib o'tish foydadan xoli emas.

Abu Rayhon Beruniy 973 yilning 4 sentyabrida Xorazmning Kot shahrida tug'ilgan. Hozirda bu hudud Beruniy tumani deb yuritiladi. Bir vaqtlar Kot Xorazmshohlar poytaxti bo'lgan. Beruniyning ismi Muhammad, otasining ismi Ahmaddir. Muhammad Kot shahrining tashqi chekkasida tug'ilgan. U paytlarda ichkari shaharni shahri darun, tashqi shaharni shahri berun deb ataganlar. Muhammad tashqi shaharda tug'ilgani uchun o'ziga Beruniy taxallusini tanlagan.

U o'zining iqtidori bilan Xorazmshohlar e'tiborini qozonadi. Uni olim va podshohzoda Abu Nasr Iroq o'z tarbiyasiga oladi. Ustozi unga Abu Rayhon deb nom bergan. Shogirdini Xorazmshoh saroyidagi olimlar davrasiga olib kiradi. Shu erda Abu Rayhon Ibn Sino bilan tanishadi.

Beruniy va Abul Abbos Ma'mun ibn to'g'risida mana shunday bir xodisani shunday eslaydi. Bir kuni shoh otda bir qancha yo'l yurganidan keyin Beruniyning uyi yaqinida to'xtab, uni chaqirishga buyuribdi. Beruniy uyidan sal kechikib chiqibdi. Ma'mun uni ko'rishi bilan oldiga ot choptirib kelibdi va otdan tushmoqchi bo'lganida Beruniy egilib, uning otdan tushmasligini

o'tinib iltimos qilibdi. Shoh bir bayt o'qibdi, uning mazmuni bunday: "Ilm har narsadan ulug'dir. Hamma ilmga intiladi, ammo ilm (hech kimga) o'zi kelmaydi".

Ilm ahlining qadriga yetuvchi Abul abbos Ma'mun ibn Ma'mun Gurganchda "Ma'mun akademiyasi"ga Beruniyni rahbar qilib qo'yadi. Beruniy mana shu "Ma'mun akademiyasi"ning rahbari sifatida 8 yil (1009-1017) faoliyat ko'rsatgan. Mashhur olimlarni yig'ib, madrasa talabalariga dunyoviy ilmlardan saboq berganlarva yosh olimlarning ilmiy tadqiqotlariga rahbarlik qilish bilan birga ularga fan asoslaridan ma'ruza o'qiganlar.

Beruniyning tabiiy-ilmiy yutuqlaridan biri shundaki, u Yerning markaz emasligini, uning quyosh atrofida harakat qilishi haqidagi geliosentrik g'oyani ilgari surdi. Beruniyning bu ilmiy xulosasi o'sha davrdan 500 yil o'tgandan keyin ulug' artronom kopernik tomonidan ilmiy asosda tasdiqlandi. Beruniy Abu Ali ibn Sino bilan qilgan munozarasida koinotdagi sayyoralar, Yer ham o'zaro tortishish kuchiga ega degan xulosaga keldi. Beruniyning bu nazariy xulosalari XVIII asr boshida ingliz olimi I.Nyuton kashf etgan butun dunyo tortishish qonuni bilan ilmiy jihatdan asoslanadi. Beruniyning o'z davridagi va keyingi olimlarga ilmiy ta'siri juda kuchli edi. Shuning uchun ham Beruniyni zamondoshlari va keying asrlarda yashab, ijod qilgan Sharq mutaffakkirlari va Ovrupo olimlari ham o'zlarining ustozlari deb tan olganlar.

Beruniy ilm-fan tarixida birinchi bo'lib, ilmiy haqiqatni, fanni xurofotlarva bid'atlar ta'siridan qutqarish haqidagi ta'limotini yaratdi. Uning bu ilmiy ta'limoti tajriba usuli bilan tekshirishga asoslangan edi.

1017 yilda Mahmud G'aznaviy Xorazmni bosib oladi va Beruniy boshqa Xorazmlik olimlar qatorida G'aznaga olib ketiladi. Olim umrining oxirigacha o'sha yerda qolib ketadi. 1048 yilda 75 yoshida shu shaharda vafot etadi. Qabri hozirgacha bor. Ammo xarob ahvolda. Urganch shahrida uning ramziy qabri mavjud.

Rivoyatda talqin etilgan voqealar 1017 yildan keyingi ro'y bergan turli-tuman sarguzashtlar asosida ro'yobga chiqqan. Mahmud G'aznaviy (Sulton Mahmud) 998-1030 yillarda G'aznaviylar davlatida hukmronlik qilgan. Tug'ilgan yili noma'lum, 999 - yilda butun Xurosonni egallab, o'zini sulton deb e'lon qiladi. Panjob, Kashmir va Shimoliy Hindiston viloyatlariga 17 marta talonchilik yurishi qiladi. Juda ko'p qon to'kadi. Taqdirga qarangki, Beruniydek buyuk olim ana shu mustabid hukmdor huzurida ancha yillar xavf-xatar ostida yashashga majbur bo'ladi. Buyuk donishmand darajasigacha ko'tarilgan eldoshimiz aql-idrok, yuksak iroda egasi bo'lganligi sababli o'sha johil sultonlar bilan ham murosaga borib, o'zining keng doiradagi ilmiy ishlarini g'ayrat bilan ro'yobga chiqargan.

Oldingi darsliklarda berilgan rivoyat xalq orasida keng ommalashgan. Mazkur syujet asosida Omon Matjon o'zining "O'n uchinchi eshik" dramasini yozgan. Yoshlarga buyuk bobokalonimiz siymosini gavdalantirishda ushbu rivoyat kattagina amaliy ahamiyatga egadir. O'z navbatida Beruniyning hayoti va faoliyati o'quvchilar uchun ibrat namunasi bo'lib xizmat etadi.

Tarixda o'chmas iz qoldirgan alloma bobolarimiz hayoti haqida to'qilgan rivoyatlarni tarixiy o'tmish voqealari bilan qiyosiy o'rganish yoshlar ongida bugungi baxtli hayotni qadrlash kayfiyatlarini yuzaga keltiradi. Ularni ilm-fanga bo'lgan qiziqishlarini yuksaltiradi. Rivoyatni o'rganish davomida Beruniy portretidan foydalanish, uning ayrim kitoblari ko'rgazmasini tashkil qilish, olim haqida yozilgan romanlar xususida ma'lumot berish dars samaradorligini yanada oshiradi.

(Beruniy. Hikmatlar. –T.: “Yosh gvardiya”, 1973. –B.8.)

Foydalangan adabiyotlar

1. Beruniy. Hikmatlar. –T.: “Yosh gvardiya”, 1973. –B.8.
2. Beruniy i gumanitarnye nauki. –T.: «Fan», 1972. –S.3.
3. Qayumov A. Beruniy va adabiyot. –T.: “Adabiyot va san'at”, 1974. –B.3
4. N.Atayeva,F.Rasulova,M.Salayeva,S.Hasanov“Umumiy pedagogika” T;195-204-b.
5. M.Salayeva “Umumiy pedagogika” darslik. “Nodirabegim” nashriyoti –T.2021